



Университет Пучон  
в городе Ташкент



Центр  
науки и инноваций

**СТУДЕНЧЕСКАЯ НАУКА:  
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, КРЕАТИВНЫЕ ИДЕИ,  
ПРОЕКТЫ И ИННОВАЦИИ**

\*\*\*

**TALABALAR ILM-FANI:  
DOLZARB MASALALAR, KREATIV G'OYALAR,  
LOYIHALAR VA INNOVATSIYALAR**

\*\*\*

**STUDENT SCIENCE:  
TOPICAL ISSUES, CREATIVE IDEAS,  
PROJECTS AND INNOVATIONS**

28 апреля 2023 года  
ТАШКЕНТ

"STUDENT SCIENCE: TOPICAL ISSUES, CREATIVE IDEAS, PROJECTS AND INNOVATIONS"



Университет Пучон  
в городе Ташкент



Центр  
науки и инноваций



Университет Пучон  
в городе Ташкент



Центр  
науки и инноваций

**СБОРНИК**  
МЕЖВУЗОВСКОЙ СТУДЕНЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

**СТУДЕНЧЕСКАЯ НАУКА:  
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, КРЕАТИВНЫЕ ИДЕИ,  
ПРОЕКТЫ И ИННОВАЦИИ**

\*\*\*

**TALABALAR ILM-FANI:  
DOLZARB MASALALAR, KREATIV G'OYALAR,  
LOYIHALAR VA INNOVATSIYALAR**

\*\*\*

**STUDENT SCIENCE:  
TOPICAL ISSUES, CREATIVE IDEAS,  
PROJECTS AND INNOVATIONS**

28 апреля 2023 года

Ташкент

preschool education.....	219
44. <i>Sadikova Sh.A., Yakubova Z.Z.</i> Yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarining oʻrni.....	220
45. <i>Saminjonova Z.I.</i> Теоретический подход к проблеме одиночества.....	226
46. <i>Shamsiddinova M.Y.</i> Developing creativity and problem-solving skills in teaching English.....	230
47. <i>Shaymardanov A.</i> The rise of uzbek nlp ai tools: opportunities and challenges.....	234
48. <i>Xamroyev X.R.</i> Biznes inkubator - tadbirkorlikni faollashtirishning samarali vositasi.....	238

"STUDENT SCIENCE: TOPICAL ISSUES, CREATIVE IDEAS, PROJECTS AND INNOVATIONS"

49. <i>Xasanova O.Q.</i> Nemis tilini oʻrgatish va oʻrganishda yoʻl qoʻyladigan xato turlari.....	246
50. <i>Xolboʻtayev X.H.</i> Axborot tahdidlarining psixologik taʼsiri.....	251
51. <i>Yunusova G.R.</i> Badiiy adabiyotda yoʻl xronotopining ramzlar bilan assotsatsiyasi.....	255

UDC: 82-1/9

## BADIIY ADABIYOTDA YO'L XRONOTOPINING RAMZLAR BILAN ASSOTSATSIYASI

**Yunusova Ganjina Rustamovna**

*BDU, o'qituvchi, doktorant*

**Annotatsiya.** Maqolada adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo'lmish yo'l xronotopining badiiy xususiyatlari, ramzlar bilan asotsiatsiyasi, ingliz tilidagi yo'l so'zining semantik- idiomatik ma'no birliklari tahlil qilingan. Yo'l xronotopining ijodkorning badiiy- g'oyaviy maqsadini tasvirlashda, xronotopning asar syujetini yo'naltirishdagi o'rni tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** xronotop, yo'l xronotopi, ramzlar bilan asotsiatsiya, badiiy asar semantik arxitektonikasi, folklorda yo'l xronotopi.

Yo'l xronotopi haqida tafakkur etar ekanmiz, uning semantik funksiyalarini, metaforik fikrlash tizimidagi ma'no-mazmun jilvalarining muhim ahamiyatini ta'kidlab o'tishimiz darkor. Yo'l xronotopiga asoslanib adib inson ongida koinot modelini quradi, u yo'l metaforalari orqali ongidagi dunyo haqidagi bilimlarini, o'zi haqidagi g'oyalarini, ijtimoiy hayotdagi o'rnini, bilish, ijodkorlik, anglash, ijodiy qobiliyat kabi kechinmalarni aks ettiradi. Misol tariqasida mehnat so'zi bilan metaforik aloqadorligini kuzatadigan bo'lsak: mehnat yo'li, bilim yo'li, ijod yo'li; insoniyat jamiyatni mukammal barpo etish va unga zid ijtimoiy-ma'naviy g'oyalar bilan aloqador metaforalar birligi: yaratish yo'li, halokat yo'li, najot yo'li, jinoyat yo'li kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Badiiy asarda yo'l turli xil ko'rinishlarda uchraydi va har bir variatsiya muayyan bir g'oyaning ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy asarda yo'llar qahramonni shunchaki muayyan manzilga yetkazibgina qolmay, qahramon o'zini chuqurroq anglashi uchun erkinlik izlab yo'lga chiqadigan makon sifatida gavdalanadi [3, b.68].

Badiiy asarlarda yo'llar aksariyat hollarda qidiruv, izlash, ayniqsa ozodlikni topish kabi kechinmalar orqali ifodalanadi. Yo'llar ramzidan qadim zamonlardan buyon adabiyotshunoslikda salmoqli foydalanib kelinmoqda. Yunon shoiri Gomer "Odisseya"sida yo'l motividan ramziy ma'noda foydalanadi. Odisseya Troyan urushidan so'nggi uyi tomon yo'lchiligida o'zligini topadi desak mubolag'a bo'lmaydi, chunki bu asarda yo'l erkinlik va o'zlikni anglash sifatida namoyon bo'ladi. Xuddi shunday zamonaviy Amerika adabiyotining yorqin namunasi bo'lgan Jek Kerouacning (Jack Kerouac) "Yo'lda" asarida yo'l, sayohat qilish ozodlikni izlash ko'rinishida ifodalanadi. Migel de Servantesning "Don Kixot", Mark Tvenning bolalar klassikasi bo'lmish "Geklberri Finning sarguzashtlari" va Jon Steynbekning "G'azab uzumlari" (The Grapes of wrath) singari asarlarda ham yo'l va yo'lchilik ozodlik sari yo'l ramzida aks ettirilgan.

Garchi eslatib o'tilgan namunalar bir-biridan juda farq qilsa ham, ularni bog'laydigan tushuncha yo'l nafaqat muayyan makonlarni tutashtiruvchi ob'ekt, balki o'zgarish yo'lidir ham. "Thelma va Louise" (1991), "Sideways" (2004) va "The Lord of Rings" "Uzuklar qiroli" trilogiyasi (2001-2003) haqida mulohaza qiladigan bo'lsak, bularning barchasi janr, syujet, mavzu jihatidan juda farq qiladi. Shunga qaramay, ularning barchasi bitta umumiy nuqtaga ega: qahramonlar yangi sarguzashtga, yo'lchilikka kirishadilar, yo'l oxirida xavfli, ammo hayajonli va hatto kelajak uchun umidga to'la kechinmalarni boshdan kechiradilar.

Yo'l simboli folklorda ham keng ko'lamda qo'llaniladi. Yo'l ramzining turli variatsiyalari folklorning barcha turlarida o'z aksini topgan. Bundan tashqari folklordagi yo'l oddiy yo'l bo'libgina qolmay, har bir personaj uchun "hayot yo'li"ning muhim qismi bo'lib gavdalanadi. Misol tariqasida chorrahalarini oladigan bo'lsak, bu motiv folklor qahramoni uchun hayotdagi burulish nuqtasi hisoblanib, haqiqiy yo'lning yo'nalishini tanlashda, insonning kelajagini hal qiluvchi belgi sifatida tasvirlanadi. Folklorda boshqa yo'l komponentlari ham muhim hisoblanib hayot bosqichlarini tavsiflovchi yo'lning boshlanishi va oxiri, uchrashuvlar, to'siqlar, yo'l belgilari, taqdir

belgilari kabi elementlar badiiy parcha syujet chizgilarining qay yo'sinda shakllanishini belgilab beradi [7, b.8].

Badiiy asarda yo'l xronotopi turli ko'rinishlarda yoritiladi va har bir yo'l turi syujet chizgilarini turli yo'nalishlarda o'zgartiradi. Misol tariqasida dag'al va notanish yo'llar mushkulot, qiyinchilik ramzi bo'lib hisoblanadi. Agar bu shag'alli yo'l bo'lsa, bu ko'pincha qiyin bo'lishini va katta kuch va mehnat talab qilishini anglatadi. Dag'al yo'l g'amginlik, baxtsizlik yoki vaqt va kuch sarflashni bashorat qilishi mumkin. Misol tariqasida Jon Steynbekning "The Grapes of wrath" asaridan parchani tahlil qilishimiz mumkin.

"Highway 66- Historic Route 66" can be pretty rough for modern means of transportation, but this road was a will for living, hope for future. The road of Oklahoma had become the path of despair, but the road leading to California seemed like a Heaven promising work and prosperity." (66-Magistral - 66-tarixiy yo'l zamonaviy transport vositalari uchun juda qo'pol bo'lishi mumkin, ammo bu yo'l yashash istagi, kelajakka umid edi. Oklaxoma yo'li umidsizlik yo'lga aylangan edi, lekin Kaliforniyaga olib boradigan yo'l Jannatmonand, va'da qilingan ish va farovonlik sari yo'l bo'lib ko'rinardi.) [5, b.139]

Quyidagi parchadan ko'rinib turibdiki, garchi yo'l dag'al, mashshaqatlarga to'la bo'lsada, qahramonlarni orzulari sari eltadigan jannatmonand makonga eltuvchi vosita bo'lib tasvirlanmoqda.

Badiiy asarda yashil, ko'katlar bilan chegaralangan silliq yo'llar tasviri maroqli sayohatni, orzularning ushalishiga eltadigan yo'lni anglatadi. Daraxtlar va gullar bilan o'ralgan sokin yo'l umid va barqaror taraqqiyotning ramzidir. Bunday sayohatlarda bosib o'tilgan yo'l kutilmagan, ammo omadli bo'ladi. Bunday yo'llar ko'pincha muvaffaqiyat, taraqqiyot va o'sish uchun ramz sifatida qo'llaniladi.

Badiiy asarda chorraha xronotopidan foydalanilsa, odatda qilinishi kerak bo'lgan tanlov yoki o'zgarishlar muhim vaqti uchun simbolika tariqasida istifoda etiladi. Hattoki ingliz tilida "at the crossroads" (chorrahada) iborasi mavjud bo'lib, ikki qarama-qarshi yo'nalishni, tanlovdan birini tanlashni anglatadi.

Yo'l xronotopi asosan ochiq va keng makondan foydalanib uchrashuv motivi bilan bog'lanadi. Yo'ldagi uchrashuv yangi munosabatlar qurilishiga, yangi qahramonlar, hodisalar kashf etilishiga ishora qiladi. Yo'lda uchragan qahramon jonzot yoki insonligiga qarab ikki tomonlama va diametral ma'no kasb etadi. Yo'l xronotopi orqali uchragan epizod tahdid qiluvchi jonzot bo'lsa, unda badiiy asar syujeti avantur mazmun kasb etib qahramonni sirli sarguzashtlar kutadi.

Bundan tashqari, badiiy adabiyotda cho'llar yoki suv bosgan yo'llar ko'rinishi ham qo'llaniladi. Jon Steynbekning (John Steinbeck) "The grapes of wrath" asarida yo'llar cho'l bilan kesishadi. Asarda cho'l eski va yangi hayot o'rtasidagi chegarani, bosh qahramonlarning taqdir yo'lini tasvirlaydi. Cho'llar kesishgan yo'llardan o'tish keksalar uchun juda ham og'ir bo'lib, hattoki ularning ko'pchiligining joniga qasd qilish bilan barobardir, ammo cho'l ortidagi manzil ularni olg'a intilishga undaydi, iroda kuchini oshiradi.

Yo'llar ma'naviy sayohat timsoli sifatida uzoq vaqtlardan beri adabiyotshunoslikda qo'llanilib kelinmoqda. Yo'l timsoli asarning asosiy mavzusi yoki fon elementi bo'lishi mumkin, ammo syujet chiziqlarini yo'naltirish uchun muhim omil bo'lib sanaladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Auge' Marc. Non-Places: Introduction to an Anthropology of Supermodernity // Trans. By John Howe. – London: Verso, 1995.
2. Ganser Alexandra, Puhlinger Julia, Rheindorf Markus. Bakhtin's Chronotope on the Road: Space, Time, and Place in Road Movies since the 1970's. – Facta Universitatis, 2006. – pp. 1-17.
3. Bakhtin Mikhail. The Dialogic Imagination: Four Essays // Trans. By Caryl Emerson and Michail Holquist. – Austin: University of Texas Press, 1981.
4. Enevold Jessica. Men and Women on the Move: Dramas of the Road // Collusion and Resistance: Women writing in English. – 2002.
5. Steinbeck John. The Grapes of Wrath. – 1939.

6. Hansen Julie. Space, time, plane travel in Walter Kirn's novel "Up in the air". – 1-10 p.
7. Меркулова И.И. Хронотоп дороги в русской прозе 1830-1840-х годов // Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Саранск, 2007. – С. 7-8.
8. Saidjanovna U.D., Rustamovna Y.G. The analyses of chronotope of the road in John Steinbeck's novel "The grapes of wrath" // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), Vol. 9. – 2022. – 46-48 p.
9. Yunusova G. R. Amerika romanlarida yo'l xronotopining badiiy xususiyatlari // Innovative Development in the Global Science, Vol. 5. – 2022. – 197-200 p.